



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**TARIX FAKUL'TETI**

**"MILLIY G'OYA VA MA'NAVIYAT ASOSLARI" KAFEDRASI**  
"Milliy g'oya , ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 403-guruh  
talabasi Yuldashev Ulug'bek

# **REFERAT**

**MAVZU:** Barkamol inson kamolotining ma'naviy negizlari.



**Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_ U.Nigmanova

**Kafedra mudiri:** \_\_\_\_\_ M.Sobirova

**Toshkent-2014**

**REJA:**  
**KIRISH**

**I.BOB. BARKAMOL INSON KAMOLOTINING MA'NAVIY  
NEGIZLARI**

- 1.1.Millat sha'nini yuksaltirishda yetuk va barkamol shaxslarning roli.**
- 1.2. Barkamollik- komillik demakdir.**

**II.BOB. MA'NAVIY BARKAMOLLIKKA ERISHISH INSON  
TARBIYASINING ASOSI**

- 2.1. Ibn Sino Barkamollik g'oyalarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni.**
- 2.2. Ma'naviy barkamol, jismoniy sog'lom farzandlarni tarbiyalashda ota-onaning o'rni.**
- 2.3. Mustaqillik yillarida ma'naviy yetuk barkamol insonni tarbiyalashda milliy g'oya va milliy mafkuraning roli**

**XULOSA  
ADABIYOTLAR RO'YXATI**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbliji.** Milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglash, milliy ongni yuksaltirish yagona millat ma'naviyat dunyosining qo'sh qanotidir. Qush ikki qanoti bilan baland-balandlarga uchgani kabi millat sha'nini o'z qanotidek his etadi va uni himoya qiladi. Mabodo milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglash bo'lmasa, millat sha'ni tushib ketadi.

Milliy o'zlikni anglash va milliy ongni yuksaltirish real ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy asoslarda shaxs ongida qaror topadi va u iroda bilan bog'lanib, amaliy harakat tusiga kiradi. CHunonchi, milliy o'zligini anglagan shaxslar hozirgi tarixiy sharoitda mamlakat hayotining barcha sohalaridagi salohiyatini ko'tarish zaruriyatini anglab yetadi.

O'z millatining haqiqiy tarixini anglagan, tarixiy xotiraga ega bo'lgan kishilarda milliy o'zlikni anglash va millat sha'nini himoya qilish mayli kuchaydi. Mustaqillik yillarida bu yo'lida davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan juda ko'p tadbirlar amalga oshirildi. Sobiq sho'rolar davrida milliy ongni o'zidan yiroqlashtirib, manqurtlashtirish siyosati olib borilgan edi. Mustaqillik yillarida uni xiralashtirish qabohatlarini tugatish choralar ko'rildi. Millatlar mavjud ekan, milliy ong ham mavjud bo'laveradi. Milliy ongni yuksaltirishga e'tibor bermagan millatning o'zi yo'q. Milliy ong millat bilan chambarchas bog'liqligi uchun ham u millat ravnaqi bilan barobar taraqqiy etib rivojlanadi.

Milliy ong shunday g'oyalar, fikrlar tizimiki, u har bir millatning tarixi, taqdiri va kelajagi bilan bog'liq bo'lgan manfaatlar, maqsadlarni ifodalash bilan birga, millat vakillari faoliyatini maqsad, yo'nalishlar tomon boshqarib turadi.

**Mavzuning maqsadi.** Barkamollikning asosiy jihatlaridan biri shuki, u Vatanga, millatga, elu yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir. Tarixga nazar tashlasak, har qanday jamiyatda komillikning eng asosiy ko'rsatkichi insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, insonparvarlik g'oyalilariga bo'lgan munosabatida hamda ularga asoslangan amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Insondagi komillik, eng avvalo, uning fikr, tafakkuri va amaliy faoliyat erkinligini anglashidir.

Jamiyatning har bir yosh a'zosi millatlararo totuvlik, hamjihatlik va birdamlik umumbashariy qadriyat ekanligini anglay boshladи. Birdamlik va totuvlik turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintqa va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omildir.

Insoniylik fazilatlari, ezgulik g'oyalari bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar, ayniqsa yoshlar o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning qaror topayotganligi va mustahkamlanayotganligi quvonarli holatdir.

**Mavzuning vazifasi.** Milliy ongning ta'sirida shakllangan bunday xususiyatlar milliy manfaatlar va maqsadlarni amalga oshirishda yetakchi omil vazifasini bajaradi.

Qaramlik yillarida ko'plab millatlarning milliy ongini yuksaltirmaslikka katta e'tibor qaratildi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng milliy ongni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, o'zbek

tiliga davlat maqomi berildi, tariximizga xolis munosabat bildirish qaror topdi, juda ko'p tarixiy obidalar qayta ta'mirlanib, yangilari bunyod etilmoqda, milliy qadriyatlar tiklanmoqda.

Milliy o'zlikni anglash o'z ichki ziddiyatlariga ega. Mansabparastlik, tarafkashlik, guruhbozlik, mahalliychilik, millatchilik - bularning hammasi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy taraqqiyotimiz, mustaqil- ligimiz, millatlararo totuvlik uchun nihoyatda xatarlidir. Bular milliy ong, siyosiy madaniyati, milliy g'ururi zaif bo'lgan kishilarga xos xususiyatdir. Do'stlik, hamjihatlik, milliy hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, dardiga darmon bo'lism - bular bir xil xalq va millat kuch-qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizidir. Milliy ahillik bor joyda tinchlik, barqarorlik, osoyishtalik mavjud bo'ladi.

Maxalliychilik milliy birlik va birdamlikka putur yetkazadi, millatni bo'lib, parchalab, milliy nizolarni kuchaytirib yuboradi. Milliy birlikka tahdid solayotgan banday xavf-xatarlar bartaraf etilmas ekan, mustaqilligimizni, tinch hayotimizni ko'ra olmayotgan kimsalar ulardan o'z maqsadlari yo'lida ustomonlik bilan foydalanishlari mumkin.

Millatimizni, xalqimizni birlashtirishga halaqit beradigan, buyuk kelajakka erishish yo'lida to'g'anoq bo'ladigan har qanday guruhbozlik, mahalliychilik, millatchilik singari illatlardan xalos bo'lismiz kerak. Bu ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish, millatlararo totuvlikni ta'minlash yo'lidagi asosiy talablardan biridir.

Milliy ahillik bor joyda har qanday o'z-o'zini anglash real hayot vaziyatlariga muvofiq tarzda muayyan harakat va faoliyat yo'nalishini tanlash asosida boradi. Bunda shaxs dunyoqarashi, hayot ma'nosini to'g'ri anglashi asosida maqsad-muddaolarini belgilashga ko'p narsa bog'liq bo'ladi. Turli yo'llardan qay birini tanlash, mavjud imkoniyatlarni anglab, uni voqelikka aylantirish yo'llari, vositalarini belgilash bevosita shaxslarning hayot ma'nosini to'g'ri anglashlari bilan uzviy bog'lanib ketadi. Ilmiy salohiyati kuchli, falsafiy mushohada qilish quvvatiga ega shaxslar harakat va faoliyat yo'nalishini to'g'ri belgilab, ularni milliy qadriyatlar majmuasi bilan bog'lay oladilar.

Milliy g'urur, milliy faxr, millat sha'nini yuksaltirishda har tomonlama yetuk bo'lgan komil insonlarning, yetuk shaxslarning roli katta bo'lib kelgan. Yetuk va komil insonlar millatarvarlik, vatanparvarlik, fidoiylik fazilatlarini ixtiyoriy holda egallaydilar va ulardan ongli holda foydalana oladilar.

O'z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, milliy manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan, millati uchun jonini fido qilishga tayyor turmagan kishilarda milliy g'urur ham, millati bilan faxrlanish ham, millatparvarlik ham bo'lmaydi.

Etuk, komil inson sifatida voyaga yetib borayotgan har bir shaxsda millatparvarlik va vatanparvarlik bo'lishi shartdir. Mustaqil va erkin voyaga yetib borayotgan hozirgi yosh avlod zimmasiga g'oyatda buyuk, muqaddas vazifani yuklanadi. Bu Vatanni obod qilish, uning dovrug'ini olamga yoyish, kuchiga-kuch, shuhratiga-shuhrat qo'shish mas'uliyatidir.

Yurtimizda tinchlik va barqarorlikning mavjud bo'lishi, millatlarning kuchg'ayratlari, aql-idrokлari, aqliy, madaniy-ma'naviy kamolotlariga bog'liq hamdir. Yoshlar vatanimizning, millatimizning kelajagidir.

Prezident Vatan manfaatini, umummilliyl manfaatlarni hamma narsalardan ustun qo'yadigan yoshlarga katta e'tibor berayotganligi, ularga umid va ishonch bilan qarayotganligi bejiz emas, albatta.

Komilikka intilib borayotgan har bir inson millatlararo totuvlik tinchlik va barqarorlik uchun kafolat bo'lib xizmat qilishini anglab yetadi.

Yoshlar aholining yarmidan ko'pini tashkil etgan ko'p millatli O'zbekistonda ularning ruhiyatida milliy g'urur va milliy iftixor fazilatlari shakllanmoqda.

## **I.BOB. BARKAMOL INSON KAMOLOTINING MA'NAVIY NEGIZLARI**

### **1.1.Millat sha'nini yuksaltirishda yetuk va barkamol shaxslarning roli.**

Milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglash, milliy ongni yuksaltirish yagona millat ma'naviyat dunyosining qo'sh qanotidir. Qush ikki qanoti bilan baland-balndlarga uchgani kabi millat sha'nini o'z qanotidek his etadi va uni himoya qiladi. Mabodo milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglash bo'lmasa, millat sha'nii tushib ketadi.

Milliy o'zlikni anglash va milliy ongni yuksaltirish real ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy asoslarda shaxs ongida qaror topadi va u iroda bilan bog'lanib, amaliy harakat tusiga kiradi. CHunonchi, milliy o'zligini anglagan shaxslar hozirgi tarixiy sharoitda mamlakat hayotining barcha sohalaridagi salohiyatini ko'tarish zaruriyatini anglab yetadi.

O'z millatining haqiqiy tarixini anglagan, tarixiy xotiraga ega bo'lgan kishilarda milliy o'zlikni anglash va millat sha'nini himoya qilish mayli kuchaydi. Mustaqillik yillarida bu yo'lda davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan juda ko'p tadbirlar amalga oshirildi. Sobiq sho'rolar davrida milliy ongni o'zidan yiroqlashtirib, manqurtlashtirish siyosati olib borilgan edi. Mustaqillik yillarida uni xiralashtirish qabohatlarini tugatish choralari ko'rildi. Millatlar mavjud ekan, milliy ong ham mavjud bo'laveradi. Milliy ongni yuksaltirishga e'tibor bermagan millatning o'zi yo'q. Milliy ong millat bilan chambarchas bog'liqligi uchun ham u millat ravnaqi bilan barobar taraqqiy etib rivojlanadi.

Milliy ong shunday g'oyalar, fikrlar tizimiki, u har bir millatning tarixi, taqdiri va kelajagi bilan bog'liq bo'lgan manfaatlar, maqsadlarni ifodalash bilan birga, millat vakillari faoliyatini maqsad, yo'nalishlar tomon boshqarib turadi.

Milliy ong yuqori bo'lib, u taraqqiyot jarayonida faollashib borgan taqdirdagina o'z natijasini beradi. Milliy ong milliy manfaatlar sifatida, moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish, o'zga millatlar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida ham shakllanib, rivojlanib boradi.

Mana shu jarayondagina millatga xos bo'lgan xususiyatlar shakllanadi va bunday xususiyatlar millatni boshqa millatlardan ajratib turadi.

Milliy ongning ta'sirida shakllangan bunday xususiyatlar milliy manfaatlar va maqsadlarni amalga oshirishda yetakchi omil vazifasini bajaradi.

Qaramlik yillarida ko'plab millatlarning milliy ongini yuksaltirmaslikka katta e'tibor qaratildi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng milliy ongni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, o'zbek tiliga davlat maqomi berildi, tariximizga xolis munosabat bildirish qaror topdi, juda ko'p tarixiy obidalar qayta ta'mirlanib, yangilari bunyod etilmoqda, milliy qadriyatlar tiklanmoqda.

Milliy o'zlikni anglash o'z ichki ziddiyatlariga ega. Mansabparastlik, tarafkashlik, guruhbozlik, mahalliychilik, millatchilik - bularning hammasi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy taraqqiyotimiz, mustaqil- ligimiz, millatlararo totuvlik uchun nihoyatda xatarlidir. Bular milliy ong, siyosiy madaniyati, milliy

g'ururi zaif bo'lgan kishilarga xos xususiyatdir. Do'stlik, hamjihatlik, milliy hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, dardiga darmon bo'lism - bular bir xil xalq va millat kuch-qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizidir. Milliy ahillik bor joyda tinchlik, barqarorlik, osoyishtalik mavjud bo'ladi.

Maxalliychilik milliy birlik va birdamlikka putur yetkazadi, millatni bo'lib, parchalab, milliy nizolarni kuchaytirib yuboradi. Milliy birlikka tahdid solayotgan banday xavf-xatarlar bartaraf etilmas ekan, mustaqilligimizni, tinch hayotimizni ko'ra olmayotgan kimsalar ulardan o'z maqsadlari yo'lida ustomonlik bilan foydalaniishlari mumkin.

Millatimizni, xalqimizni birlashtirishga halaqit beradigan, buyuk kelajakka erishish yo'lida to'g'anoq bo'ladigan har qanday guruhbozlik, mahalliychilik, millatchilik singari illatlardan xalos bo'lismiz kerak. Bu ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish, millatlararo totuvlikni ta'minlash yo'lidagi asosiy talablardan biridir.

Milliy ahillik bor joyda har qanday o'z-o'zini anglash real hayot vaziyatlariga muvofiq tarzda muayyan harakat va faoliyat yo'nalishini tanlash asosida boradi. Bunda shaxs dunyoqarashi, hayot ma'nosini to'g'ri anglashi asosida maqsad-muddaolarini belgilashga ko'p narsa bog'liq bo'ladi. Turli yo'llardan qay birini tanlash, mavjud imkoniyatlarni anglab, uni voqelikka aylantirish yo'llari, vositalarini belgilash bevosita shaxslarning hayot ma'nosini to'g'ri anglashlari bilan uzviy bog'lanib ketadi. Ilmiy salohiyati kuchli, falsafiy mushohada qilish quvvatiga ega shaxslar harakat va faoliyat yo'nalishini to'g'ri belgilab, ularni milliy qadriyatlar majmuasi bilan bog'lay oladilar.

**Milliy g'urur, milliy faxr, millat sha'nini yuksaltirishda har tomonlama yetuk bo'lgan komil insonlarning, yetuk shaxslarning roli katta bo'lib kelgan. Yetuk va komil insonlar millatarvarlik, vatanparvarlik, fidoiylik fazilatlarini ixtiyoriy holda egallaydilar va ulardan ongli holda foydalana oladilar.**

O'z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, milliy manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan, millati uchun jonini fido qilishga tayyor turmagan kishilarda milliy g'urur ham, millati bilan faxrlanish ham, millatparvarlik ham bo'lmaydi.

Etuk, komil inson sifatida voyaga yetib borayotgan har bir shaxsda millatparvarlik va vatanparvarlik bo'lishi shartdir. Mustaqil va erkin voyaga yetib borayotgan hozirgi yosh avlod zimmasiga g'oyatda buyuk, muqaddas vazifani yuklanadi. Bu Vatanni obod qilish, uning dovrug'ini olamga yoyish, kuchiga-kuch, shuhratiga-shuhrat qo'shish mas'uliyatidir.

Yurtimizda tinchlik va barqarorlikning mavjud bo'lishi, millatlarning kuch-g'ayratlari, aql-idroklli, aqliy, madaniy-ma'naviy kamolotlariga bog'liq hamdir. Yoshlar vatanimizning, millatimizning kelajagidir.

Prezident Vatan manfaatini, umummilliyl manfaatlarni hamma narsalardan ustun qo'yadigan yoshlarga katta e'tibor berayotganligi, ularga umid va ishonch bilan qarayotganligi bejiz emas, albatta.

Komilikka intilib borayotgan har bir inson millatlararo totuvlik tinchlik va barqarorlik uchun kafolat bo'lib xizmat qilishini anglab yetadi.

**Yoshlar aholining yarmidan ko'pini tashkil etgan ko'p millatli O'zbekistonda ularning ruhiyatida milliy g'urur va milliy iftixor fazilatlari shakllanmoqda.**

Barkamollikning asosiy jihatlaridan biri shuki, u Vatanga, millatga, elu yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir. Tarixga nazar tashlasak, har qanday jamiyatda komillikning eng asosiy ko'rsatkichi insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, insonparvarlik g'oyalariga bo'lgan munosabatida hamda ularga asoslangan amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Insondagi komillik, eng avvalo, uning fikr, tafakkuri va amaliy faoliyat erkinligini anglashidir.

Jamiyatning har bir yosh a'zosi millatlararo totuvlik, hamjihatlik va birdamlik umumbashariy qadriyat ekanligini anglay boshladi. Birdamlik va totuvlik turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqqa va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omildir.

Insoniylik fazilatlari, ezgulik g'oyalari bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar, ayniqsa yoshlar o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning qaror topayotganligi va mustahkamlanayotganligi quvonarli holatdir.

Mustaqillik har bir millat yoshlarining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratib berdi hamda ularning millatlararo totuvlikni ta'minlashilarida asosiy omil bo'lmoqda. Jamiyat yosh a'zolarini o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalashda, boshqa millat vakillariga o'zaro hurmatda bo'lishlarini ta'minlashda mafkuraviy tarbiyaning, mafkuraviy profilaktika ishlarining ahamiyati kattadir.

**Mafkuraviy tarbiya** - inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyo-qarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Jamiyatdagi har bir ijtimoiy kuch yoki aholi qatlamlari o'z manfaat va maqsad-intilishlarini ifoda etuvchi g'oyalar tizimini yaratgach, boshqa guruhlarni ham shu g'oyalar ta'siriga tortishga, o'z tarafdorlari safini kengaytirishga harakat qiladi. Foyalar adolatli va haqqoniy bo'lib, ko'pchilikning talab-ehtiyojlariga mos kelsa, bu sohadagi tarbiya vositalari ta'sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoyi bo'lsa, g'oyaviy tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Jamiyat, xalq hali o'z manfaatlarini anglab yetmagan, o'z mafkurasini shakllantirib, maqsadlar sari safarbar bo'lmanan hollarda begona va zararli g'oyalar ta'siriga tushish ehtimoli ortib boradi. Bu esa g'oyaviy tarbiyani yo'lga qo'yish, sog'lom mafkura tamoyillarini aholi qalbi va ongiga muttasil singdirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

O'zbekiston sharoitida mafkuraviy tarbiyaning asosiy vazifasi - xalqimizning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-istiklari, maqsadlarini, milliy istiqlol mafkurasi-ning mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish, ayniqsa, yoshlar ongiga va qalbiga singdirishdan iboratdir.

Mafkuraviy tarbiya jamiyatda, avvalambor, oila, maktabgacha yoshdag'i bolalar muassasalari, maktablar, litsey, kollejlar, oliy o'quv yurtlari, om-maviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi uzluksiz faoliyatini taqozo

qiladi. Uzluksiz ta'lim tizimi mafkuraviy tarbiyani olib boruvchi asosiy bo'g'indir, zero mafkuraviy maqsadlarni yoshlar ongiga singdirish vazifasi asosan ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi.

**Millatlararo totuvlikni ta'minlashga o'z hissasini qo'shadigan komil insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qiladigan mafkuraviy tarbiya inson dunyoqarashini shakllantirishga, ularning muayyan maqsadlari ni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayondir.**

Komil inson tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi millatchilik, tajavuzkor millatchilik, shovinizm singari yovuz buzg'unchi g'oyalar mavjud bo'lган sharoitda mafkuraviy tarbiyani kuchaytirish tarixiy zaruriyatga aylandi.

Bugungi kun O'zbekiston sharoitda mafkuraviy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri - xalqimizning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi sa'y-harakatlarini takomillashtirish, millati- dan qat'i nazar, barcha jamiyat a'zolarini mana shu maqsad sari yo'lida safarbar etishdir.

Komil insonlarni voyaga yetkazishning ko'plab omillari va vositalari mavjud bo'lib, ulardan unumli foydalanishni taqozo etadi.

Barkamollik barcha insoniy fazilatlarning uyg'unligini ifodalaydi. Voyaga yetib kelayotgan yoshlarning ichki va tashqi dunyosi, sog'lom fikr va oqilona so'zi bilan amaliy faoliyati, tili bilan dili birday bo'lishi, millat va Vatan manfaatlarini barcha narsalardan ustun qo'ya bilishlik komillikning asosiy mezonlari hisoblanadi.

Yurtimizda tinchlik, barqarorlik, millatlararo totuvlikni ta'minlashni o'zining asosiy vazifalaridan biri deb tushunadigan komil insonni voyaga yetkazishda milliy tarbiyaning ahamiyati benihoya kattadir.

Milliy tarbiya asrlar mobaynida Vatan, millat ravnaqi yo'lida faol bo'lган kishilarni voyaga yetkazib kelgan. Mamlakatimizning yarim mustamlakaga aylantirilishi milliy tarbiyaga bo'lган munosabatni o'zgartirib yuborgan edi.

Sobiq sovet davrida milliy tarbiyani kuchaytirishga bo'lган har qanday harakatlar millatchilikni kuchaytirishga bo'lган urinish deb baholandi. Ajdodlarimiz tomonidan asrlar mobaynida foydalanib kelingan milliy tarbiya kishilarda boshqa millat vakillariga nisbatan hamkorlik, o'zaro do'stona munosabatlarda bo'lish, yaxshi va yomon kunlarda yordam qo'lini cho'zish singari fazilatlarni shakllantirib kelgan.

Tariximizda millatparvarlik harakati bilan mashhur bo'lган jadidlar harakati chor Rossiyasi mustamlakachilar olib borgan milliy siyosatdan qanday maqsadlar ko'zlanganini anglab yetdilar. Ular jahon kezib, qiyoslab, o'zbekni zamonning ilg'or millatiga aylantirish uchun milliy tarbiyaviy ishga kirishgan edilar. Mustamlakachilar olib borgan siyosat oqibatida xabarsizlik, hafsalasizlik, kelajak uchun kurashmaslik, tor dunyoqarash umummilliyl darajada nomoyon bo'lganligi uchun jadidlar millatni bunday illatlardan ma'rifat yo'l bilan tozalashga urindilar.

**Buyuk jadid bobolarimizdan Abdulla Avloniy bu haqida gapirib «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir», deganida ming bor haq edi. Ular yoshlarni har tomonlama yetuk kishilar sifatida voyaga yetkazish uchun qator chora-tadbirlarni, vazifalarni belgilab, qisman bo'lsa-da, amalga oshirdilar. Sobiq sovet tuzumi millatparvarlarning bu sa'y-harakatlariga chek qo'ydi. O'sha davrlarda kommunistik tarbiyaga katta e'tibor berilib, sovet kishisini shakllantirishga kirishilgan edi va u XX asr oxirlariga qadar jadal sur'atlarda olib borildi.**

**Bu davrda milliy o'zlikni, milliy davlatchilikni, milliy kelajakni orzu qilish, unga intilish siyosiy xato deb hisoblandi.**

**O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi yoshlarda millat dardiga darmon bo'lish, milliy ongni yuksaltirish, millat foydasini ko'zlab fikr yuritish, milliy oriyatni uyg'otish imkoniyatlarini yaratib berdi.**

**Yo'lga qo'yilgan, yaratilgan imkoniyatlar natijasida, milliy tarbiya ta'sirida har bir inson ko'pmillatli yurtimizda barcha millatlarga xos bo'lgan xususiyatlarni hurmat qiladigan komil insonlar sifatida voyaga yetib bormoqda.**

## **1.2. Barkamollik- komillik demakdir.**

Komil insonni tarbiyalash – umumbashariy g'oya. Ya'ni, bu – jami odamzotga xos orzu. Dunyodagi barcha xalqlar, millatlar va insonlar farzandlarining yetuk, barkamol bo'lishini orzu qiladi. Lekin bu maqsadni amalga oshirishda har bir xalq o'zining milliy xususiyatlari, an'ana va qadriyatlaridan kelib chiqadi. SHuning uchun ularning o'zi intiladigan komillik timsollari bo'ladi. Siz kitoblarda o'qigan Alpomish, Barchinoy, Farhod, SHirin, Tohir, Zuhra, Kenja botir kabi qahramonlar xalqimiz tasavvurida ming yillar davomida komil insonni ko'rish orzusi bilan yaratilgan badiiy obrazlardir. Ular xalqimizning o'z farzandlarini mard, pahlavon, aqli, bilimli, go'zal va sog'lom qilib tarbiyalash yo'lidagi ezgu intilishlarini ifoda etadi.

Tarixning muayyan davrlarida xalq taqdirida beqiyos o'rinn tutgan buyuk zotlar ham ezgulik ramziga, ibratli fazilatlar timsoliga aylanib qoladi. Masalan, Najmiddin Kubro, sulton Jaloliddin Manguberdi, sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimiz mardlik, botirlik, davlatni adolat bilan boshqarish borasida, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband singari aziz-avliyolarimiz din-u diyonat bobida, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mashrab, Ogahiy kabi mutafakkirlarimiz donishmandlik, ilm-ma'rifat, xalqning qalbini, inson falsafasini so'z san'ati vositasida ifoda etish borasida barchamiz uchun komillik timsoliga aylanib qolgan. Bu buyuk zotlarning har biri haqida, ularning betakror fazilatlari to'g'risida ko'p gapirish mumkin. Agar siz Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat

– yengilmas kuch” kitobining birinchi bobidagi «Ma’naviyatni anglash» deb nomlangan bo’limni o’qisangiz, ana shu ajdodlarimiz haqida bildirilgan ajoyib fikrlarni ko’rasiz. Jumladan, buyuk shoir bobomiz Alisher Navoiy haqidagi mana bu ta’riflarni komil inson haqidagi madhiya desak, arziyi:

**«Agar bu ulug’ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir» .**

Haqiqiy komil insongina shunday ulug’ fazilatlarni o’zida mujassam etishi mumkin. O’z elining faxr-u g’ururiga aylangan bunday insonlar dunyodagi boshqa xalqlar orasidan ham ko’plab yetishib chiqqan. Va bu butun insoniyatning ezgulik va insoniy barkamollik yo’lidagi intilishlari o’zaro uyg’un va mushtarak ekanini ko’rsatadi.

SHu ma’noda, komillik g’oyasi asrlar davomida nafaqat alohida shaxslar, balki xalq va millatlarni olıyanob maqsadlar sari da’vat etgan, hayotning turli sohalarida ulkan yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg’urmagan xalq yoki millat o’z kelajagini tasavvur etolmaydi.

Har bir inson uchun o’z ota-onasi, ustozlari, xalqi, o’z mamlakatining rahbari komillik timsoli hisoblanadi. SHuning uchun bizning har birimiz o’z ota-onamizni, ustozlarimizni, xalqimizni va mana shu xalqimiz saylagan Prezidentimizni dunyodagi eng aziz va barkamol insonlar deb bilamiz, ular bilan faxrlanamiz.

Inson mukammal, kamchilik va nuqsonlardan butunlay xoli bo’lishi mumkinmi? Yo’q, albatta. Inson borki, xato qiladi, adashadi. Xalqimizning «Beayb – Parvardigor» degan hikmatli gapi bekorga aytilmagan. Lekin kamchiligini tan olib, uni tuzatishga harakat qiladigan odam – mukammallikka intiladigan odamdir. Kamchiligini tan olmay, men shundoq ham yaxshiman, deb manmanlik qiladigan odam esa o’z nuqsonlarini yanada ko’paytiradi.

Har bir inson yoshlidan pokiza orzu-umidlar bilan yashaydi, xalqiga, Vataniga foydasi tegadigan kishi bo’lib yetishishni o’ylaydi. Bu ayni paytda uning ko’nglida komil inson bo’lish ishtyoqi borligidan dalolat beradi. Demak, kimki oldinga qarab intilsa, yuksak orzular bilan yashasa, u tom ma’noda o’sib ulg’ayib, mukammallahib, fazilati ortib boraveradi. Kimningki fazilati ortib, yaxshilikiga yaxshilik qo’shilib borsa, u o’zi ham sezmagan holda komillikka yaqinlashadi, mukammallahadi.

Aksincha, kimki hech narsani orzu qilmasa, o’zi bilan mag’rurlanib, hech kimni tan olmasdan, bilimi, tajribasini oshirmsa, oldinga intilmasa, o’sishdan, ulg’ayishdan to’xtaydi. Borgan sari qoloqlashib, zamondan orqada qolib ketaveradi. Fazilat o’rniga nuqsonlari ortib boradi. Bu – uning nomukammalligini, ya’ni qusurli va nuqsonli odam ekanini ko’rsatadi.

Alisher Navoiy bobomiz shuni nazarda tutib, bunday deganlar:

Noqis uldirkim, o'zin komil degay,  
Komil ulkim, nuqsin isbot aylagay.

Ya'ni, kim o'zini komil, mukammal desa, aslida u nomukammal, nodondir. Kimki o'z nuqsonlarini bilib, tan olib, ularni tuzatib borsa, komillikka erishadi.

Buyuklik oddiylikda bo'lgani kabi, komillik ham, avvalo, insonning kamtarlik, mehnatsevarlik, ma'rifatparvarlik, mehr-oqibatlilik singari oddiy va kundalik fazilatlarida namoyon bo'ladi.

Masalan mehnat tufayli inson boshqalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmasdan, erkin va mustaqil yashash imkoniyatiga ega bo'ladi. Erkin va mustaqil odamning qalbi, his-tuyg'ulari, ong-u tafakkuri ancha mukammal bo'ladi. U yon-atrofida yuz berayotgan voqeа-hodisalarga o'zining mustaqil fikri asosida baho beradi. Hayotdan doimo zavqlanib yashaydi. Bularning barchasi esa komillikning muhim belgilaridir.

Ota-bobolarimiz «Mehnatning oshi halol», «Mehnatning tagi rohat» degan maqollarni bejiz aytmagan. Mehnat insonni inson qiladigan, uni yuksaltiradigan bebafo ne'matdir. Mehnat tufayli odamzotga Alloh tomonidan ato etilgan til va tafakkur, tuyg'u va tushunchalar mukammallahib boradi. Mehnat tufayli nafaqat odam, balki olam ham takomilga yetadi.

Yana shuni bilingki, inson barkamol bo'lishi uchun avvalo uning o'zi ham, xalqi ham, Vatani ham ozod va erkin bo'lishi lozim. CHunki ozod va erkin insongina mustaqil harakat qila oladi, o'zining jismoniy va ma'naviy salohiyatini to'liq yuzaga chiqarish imkoniga ega bo'ladi.

SHuning uchun xalqimizning komillik yo'lidagi intilishlari mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin yangicha ma'no-mazmun kasb etdi, bu orzuni ro'yogga chiqarishning real imkoniyati tug'ildi. Bugungi kunda Vatanimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadida qilinayotgan ko'pdan ko'p ishlar aynan shundan dalolat beradi. :

Avvalgi darslarimizdan bilib olganingizdek, biz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatni barpo etmoqchimiz. Bunday jamiyatda davlatni boshqarish, mamlakat miqyosida qarorlar qabul qilish, tadbirlar o'tkazish ishlari oddiy odamlarning tashabbusi va intilishlari orqali amalga oshiriladi. Bunday jamiyat fuqarolari ongliligi, erkin va mustaqil fikrashi, ijtimoiy faolligi, tadbirkoriik fazilatlari bilan ajralib turadi. Bir so'z bilan aytganda, bunday jamiyat fuqarolari har tomonlama yetuk bo'lmos'hiz zarur. SHu nuqtayi nazardan qaraganda, mamlakatimizda barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida ahamiyat berilayotgani bizning erkin fuqarolik jamiyatni barpo etish yo'lidagi intilishlarimizga ham har tomonlama mos va uyg'undir. CHunki barkamol insonlar

yashaydigan jamiyatdagina tinchlik-totuvlik, hamjihatlik, adolat va ma'rifat tamoyillari ustuvor bo'ladi.

Komillikka birdaniga erishib bo'lmaydi. Barkamol inson bo'iish uchun odam o'z oldiga ezgu maqsad qo'yib, bir umr shu yo'lda intilib yashashi lozim. U qilgan ishlari, oldida turgan burchi va vazifasini har kuni tahlil etib, ulardan zarur xulosalar chiqarib, kamchiliklarini tuzatishg'a, yaxshi xususiyatlarini oshirishga harakat qilishi kerak. Bu jarayon bir kun ham to'xtamasligi zarur. Ya'ni, inson o'z oldiga qo'ygan maqsad yo'lidan chekinmasligi lozim. CHunki maqsad insonni bosqichma-bosqich yuksaltirib boradi.

Komillikka erishish jarayoni buyuk mutafakkirlar asarlarida hayotiy misollar, afsona va rivoyatlar asosida ko'rsatib berilgan. Masalan, Alisher Navoiyning «Lisonut-tayr» – «Qush tili» asarida buning yorqin namunasini ko'rish mumkin. Bu asarda bir gala qushlar afsonaviy Semurg'ni izlab yo'lga chiqadi. Ular daryo va cho'llardan, vodiylar, tog'lardan uchib o'tadi. Ko'pchiligi yo'l azobiga chiday olmay yarim yo'lda qolib ketadi. Faqat o'ttizta qush o'z maqsadidan qaytmay, manzil sari dadil intilaveradi. SHunda ular o'zлari Semurg', ya'ni o'ttizta qush ekanini sezib qolishadi. CHunki fors tilida «si» – o'ttiz, “murg” – qush degani. Bundan xulosa shuki, intilgan odam baribir maqsadiga yetadi.

Ma'lumki, bolalik paytida kimdir uchuvchi bo'lgisi, kimdir olim bo'lib, kashfiyotlar qilgisi, yana kimdir san'atkorlikka intilib, yaxshi qo'shiqlar aytgisi keladi. Lekin orzu orzuligicha qolib ketmasligi lozim. Orzu maqsadga aylanishi darkor. CHunki orzu inson xohish va istaklarini ifoda etadigan tasavvur, xayoliy narsa. Maqsad esa bajarilishi, amalga oshirilishi talab etiladigan niyatdir. Maqsad yo'lida tinimsiz o'qib-o'rganish, mehnat qilish, oldinga intilish darkor.

Odam muayyan kasbga intilar ekan, shu tariqa ko'nglidagi orzuni maqsadga aylantiradi. Bunday intilish orqali u faqat maqsadga yaqinlashibgina qolmay, shu yo'ldagi safarbarlik tufayli o'zini ham el-yurtga foydasi tegadigan inson tarzida tarbiyalab boradi. Bu jarayon to'xtamasa, uzluksiz davom etsa, inson bir kun kelib o'z sohasining eng mohir ustasiga, ta'bir joiz bo'lsa, piriga aylanadi. Uning kasb mahorati va iste'dodiga hamma tan beradi, mehnatidan ko'pchilikka foyda yetadi. SHuning o'zi, ya'ni biror-bir kasb-hunar yoki ilm sohasining ustasi bo'lish ham komillikning bir belgisidir. Ilmi va mehnati, noyob iste'dodi bilan el-yurtga xizmat qilgan insonlarni ulug'lab, ular bilan faxr-iftixor qilishimizning boisi ham shundan.

Har bir inson qalbida komillik tuyg'usi bo'ladi. Oddiy go'dak ham o'yinchoqlar orasidan eng chiroyli va mukammalini olib o'ynagisi keladi. Odamzot ana shu tuyg'uni bir umr tarbiyalab, yuksaltirib borishi lozim. Bunda, albatta, u yashaydigan muhit, yon-atrofidagi odamlar alohida ahamiyat kasb etadi. Komillik tuyg'usi go'zallik, ezgulik, adolat, insof, diyonat, haqiqat tuyg'ulari bilan yonma-yon yuradi, ular bilan birga, bir butun holda rivojlanadi.

Komil inson g'oyasi islom falsafasidan oziqlanib, xalqimiz tafakkurida yanada kengroq ma'no-mazmun kasb etgan. Bu g'oya Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy kabi donishmand bobolarimiz asarlarida teran ifoda etilgan.

Xulosa qilib aytganda, komillik odamzotning azaliy orzusi bo'lib, uni amalga oshirish uchun muayyan ijtimoiy shart-sharoit zarur. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng biz shunday imkoniyatga ega bo'ldik. Xalqimizning buyuk davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish orzusi otabobolarimizdan meros bo'lган muborak zaminimizni gullab-yashnatadigan barkamol insonlarni voyaga yetkazishni zaruratga aylantirmoqda.

## **II.BOB. MA'NAVIY BARKAMOLLIKKA ERISHISH INSON TARBIYASINING ASOSI**

### **2.1. Ibn Sino Barkamollilik g'oyalaring yoshlar tarbiyasidagi o'rni.**

Ibn Sino ilmiy madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo'sha olgan siymolardan biri. U insonning ham moddiy, ham ma'naviy salomatligi, inson tanasi va ruhining sofligi, insoniy qobiliyatlarning cheksiz rivoji, odamlarning ma'rifatli, o'zaro inoq, mehribon bo'lishi, ma'naviy va ilmiy ravnaq yo'lida birlashuv haqidagi ajoyib insonparvarlik g'oyalarni ilgari surgan. Voqelikni ma'naviy o'zlashtirish insonga xosligini Ibn Sino alohida ta'kidlagan edi. Uning fikricha, Allah insonga shunday kuch – quvvat ato etganki, shu tufayli u ezgulikni yomonlikdan, intellektual yetuklik, kamolotni yolg'on yashiq, gumrohlikdan farq qiladi. Inson aqli mavjudot bo'lgani uchun tabiatda alohida mavqeni egallaydi va boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. Ibn Sinoning bu falsafiy mulohazasi bugun ham o'z qiymatini yo'qotmagan. Bugungi kunda insoniyatga daxldor bo'lган global muammolarni hal qilishda odamlardan umuminsoniy axloq tamoyillariga amal qilish, oshkorlik, bag'rikenglik, hamjihatlik, aql-idrokini ezgu ishlarga yo'naltirishni taqozo etadi. CHunki global muammolarga to'g'ri yondoshuv taraqqiyotni tezlashtiradi, tinch-totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Buyuk allomalarimiz ta'kidlaganlaridek, insondagi komillik eng avvalo, uning fikr, tafakkur va amaliy faoliyati bilan bog'liqdir. Insonni o'z-o'zini bilishi, anglashi, boshqalar oldidagi mas'uliyat va majburiyatni his qilishi uning tarbiyasi bilan bog'liqdir. Insonni jismoniy sog'lom aql – zakovatli bo'lishi ham ta'limtarbiya bilan belgilanadi. Ibn Sino haqiqiy insonparvar mutafakkir sifatida inson ahlining har tomonlama rivojlanishiga, tabiat sirlari va haqiqatni bilishi mumkinligiga ishongan. SHuning uchun ham mutafakkir odamlar orasidagi adovat o'chog'ini quritishga chaqiradi. Insonlar bir-biri bilan sofdil, samimiyl bo'lsa, bir yoqadan bosh chiqarsa, har qanday mushkulliklar osonlashadi. Har qanday qiyinchilik hal bo'lishga va haqiqat sirlarini ochish mumkinligiga qattiq ishongan. U odamlarni ilm yo'lidagi qiyinchiliklardan cho'chimaslikka, dadil, sobitqadam bo'lishga undaydi. «Odamlarning botiri, — deydi Ibn Sino, —

kelajakdagi ishdan, mushkulotdan qo'rqlmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqligi idir».

«Bola aziz, odobi undan aziz» maqolida olam-olam ma'no mujassam. Xo'sh, shunday ekan, bugungi kunda bola tarbiyasi qay ahvolda? Ushbu hozirgi kunning eng dolzarb muammosi haqida ne-ne buyuk zotlar boshqotirishmagan.

Naql qilishlaricha, donishmand Abu Ali Ibn Sino huzuriga yosh ota-onal kechagina tug'ilgan farzandlarini olib kelib, undan bolani qanday tarbiya qilish kerakligi haqida so'rashibdi. SHunda donishmand: «Tarbiyada to'qqiz oy kechikibsizlar», degan ekan. Ushbu rivoyatda bola tarbiyasi qancha erta boshlansa, shuncha yaxshi, degan fikr mujassam. SHu bilan birga bola halol paydo qilinib, ona qornida ham halollikdan oziqlanishiga, munosib parvarishlanishiga ishora bor. Ibn Sino farzandlarning namunali xulq egalari bo'lib yetishishlari uchun odamlarni bir-birlari bilan do'st-inoq bo'lib yashashga, insonlarni pastlikka eltadigan adovat o'chog'ini quritishga, birodarona ahil, hamjihat turmush kechirishga chaqiradi: «Ey birodarlar! Bir biringiz bilan samimiyl do'st bo'linglar. Har biringiz o'z birodaringiz uchun xolis dilingizdagi pardalarni ochib tashlanglar». Bir she'rida u johillarni dunyoda hech narsani ko'ra olmaydigan ko'r bilan teng qiladi:

Ko'rlarga quyosh ravshan emas-ku,

Johilga to'g'ri yo'l pinhon, shuningdek .

Ibn Sino oila tarbiyasi masalalari bo'yicha maxsus «Tadbir al-manozil» nomli asarini yozgan. Unda olim ota-onaning bolalar tarbiyasidagi vazifalarini yoritgan va o'zining ta'lim-tarbiya haqidagi har tomonlama mukammal mulohazalarini bayon qilgan. Asarning «Muqoyasa dar axloq» bobida ota-onalar va tarbiyachilarga quyidagicha maslahatlar berilgan: «Ota-onal bolalarni tarbiyalashda ularga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lishlari kerak. Ayniqsa, bolaning xulqidagi kamchiliklarini uning shaxsiyatiga tegmasdan bartaraf etishlari lozim». Asarning «Nasihat yo'li» bobida ota-onalarning vazifalari ifodalanib, bu vazifalarni bajarish uchun ota va onada qanday fazilatlar bo'lishi kerakligi ko'rsatilgan: «... tarbiyaning biri bolaga yaxshi ot qo'yish, unga ilmu adab o'rgatish, barchani hurmat qilishga o'rgatish, kasb-korli qilish» va hokazo. Bugungi kunda bola tarbiyasi oilada ko'proq onalar zimmasida. SHunday ekan, butun mas'uliyatli vazifani bajaruvchi onalar ma'naviyati qay darajada, oilaviy muhit, er-xotin munosabatlari qanday, ota-onal bola uchun ibrat bo'la oladimi? Ibn Sino «Tadbir al-manozil» asarida onalar fazilati haqida ham fikr yuritgan: «Xotin kishi bilimli bo'lsin. U dinga ishonsin. Uyatchan, sharmu hayoli, iboli, tabiatan jasur, o'z erini qattiq sevadigan, bola tarbiyasi haqida o'ylaydigan bo'lishi, ezma bo'lmasligi va o'z eriga bo'ysunishi, to'g'ri, kamtar, farosatli bo'lishi kerak». Xalqimizning «Qush uyasida ko'rganini qiladi», «Onasini ko'r, qizini ol» degan asrlar sinovidan o'tgan maqollari ham behudaga to'qilmagan. Ularda katta hayot saboqlari mujassamlashgan. Ibn Sino bolaga nima yaxshi-yu,

nima yomon ekanligi haqidagi fikr tinimsiz singdirib borilishi lozimligi haqida shunday deydi:

Yomon yo yaxshilik qilgay har kishi

SHu yomon, yaxshini topmoqdir ishi.

Donishmandlardan biri: «Har bir millatning ma’naviy boyligi uning qancha kitob o’qishiga qarab belgilanadi» degan ekan. Hozirgi kunda avlodlarning ajdodlarimiz yaxshi xislatlarini o’zlashtirib, yomon jihatlarini takrorlamasligiga juda ko’p narsa bog’liq. Bu borada tarbiyaning rolini hech kim inkor qila olmaydi.

## **2.2. Ma’naviy barkamol, jismoniy sog’lom farzandlarni tarbiyalashda ota-onaning o’rni.**

Oila milliy madaniyatini saqlash va rivojlantirishda muhim rol o’ynaydi. Agar ota-onalar jamiyatimiz tomonidan oilaga, o’sib borayotgan avlod tarbiyasiga qo’yiladigan talabni bilsa, axloqiy tarbiya samarali bo’ladi; axloqiy tarbiyalash jarayonida bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy o’zbek an’analaridan foydalaniladi; ota-onalar pedagogika va psixologiyaning zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda va oilaviy tarbiya masalalari bo’yicha SHarq mutafakkirlarining boy madaniy merosidan foydalangani holda o’zining pedagogik ma’lumotini doimo oshirib boradi.

«Farzandlarimizning ongi shakllanadigan maktab yoshigacha bo’lgan davrda ota-bobolarimizdan qolgan urf-odatlar, go’zal qadriyatlar va zamonaviy tarbiya usullariga amal kilgan holda tarbiyalash, ularni ko’z o’ngida ochilayotgan dunyo mo’jizatari bilan taniiggirib borish, - dedi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O’zbekiston Konstitutsiyasining 8-yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimda so’zlagan nutqida, - barcha ota-onalar va tarbiyachilarimizning asosiy vazifasi bo’lmog’i kerak».

Yangi avlod tomonidan shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni tartibga solishning ijtimoiy ishlab chiqilgan va tarixiy yuzaga kelgan shakllarining o’zlashtirilishi hayotiy faoliyatning insonga xos usuliga erishishning muhim yo’llaridan biri hisoblanadi. O’tmishning ma’naviy merosi nafaqat haykallar, ilm va san’at ko’rinishida saklanib qolmaydi va yetkazilmaydi, balki u insonning ijtimoiy kamol topishi bilan birga ijtimoiy boshqaruvning turli shakllarini o’z ichiga oladi. Ular orasida urf-odatlar va an’analar katta ahamiyatga ega.

Xalqning urf-odatlari va an’analar - bu ko’p asrlar davomida uning tarbiyaviy sa’y-harakatlari natijasidir. Bu tizim orqali xalqimiz o’z ma’naviy madaniyati, fazilati va psixologiyasini boyitadi. «Nuroniy otaxonlarimiz, munis onaxonlarimizga hamisha hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo’lish, ularning xizmatini qilib, duosini olish, jazzi go’daklarga, aziz farzandlarimizga gamxo’rlik qilish, ularni ardoqlashdek xalqimizga xos bo’lgan, asrlar davomida saqlanib kelayotgan olijanob odatga har birimiz sodiq bo’lishimiz, uni asrab-avaylashimiz, rivojlantirishimiz ham farz, ham qarzdir».

Milliy urf-odatlar va an'analar mohiyatini tushunmaslik, milliy o'zlik, xalqning o'ziga xosligi, uning psixologiyasi va turmush tarzidan uzoqlashish, o'tmishtga beparvo munosabatda bo'lish manbadan uzoqlashishga olib keladi, avlodlarning ayuqasiga putur yetkazadi.

Xalq urf-odatlari va an'anataridan nasihatomuz va kesatib foydalanmaslik zarur. Ota-onalar va pedagoglar ularning mohiyatini yaxshi tushunishi lozim va aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatish yo'li bilan ularning asosida bolalarda kattalarga nisbatan hurmatda bo'lish, kichiklarga g'amxo'rlik qilish, xayrioxlik, mehnatsevarlik, mehmono'stlik, o'qish va o'qituvchilarga hurmat bilan munosabatda bo'lish singari axloqiy fazilatlarni shakllantirishi kerak.

O'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda xalq an'analarining roli SHarq va G'arbning mashhur olimlari va mutafakkirlari asarlarida o'z aksini topgan. Urf-odatlar va an'analarini tadkiq qilishga bagishlangan falsafiy adabiyotda ushbu ijtimoiy hodisalar, odatda, bir-birga tenglashtiriladi. Urf-odatlar turkumiga kiruvchi ijtimoiy hodisalar ba'zan urf-odatlar deb, ba'zan esa an'analar deb nomlanadi.

An'analar - bu yangi avlodda asrlar davomida yaratilgan xalqning ijtimoiy va madaniy merosini davom ettirish jarayonidir. Jamiyat tomonidan belgilab olingen yo'nalishlar, xulq-atvor normalari, qadriyatlar, g'oyalar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va hokazolar an'anatar sifatida ishlatalishi mumkin. An'analar bevosita insonning ma'naviy dunyosiga yo'naltirilgan, ular bilvosita emas, balki ushbu munosabatlar tomonidan talab etiladigan ma'naviy fazilatlarni shakllantirish orqali ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirish va qayta tiklash vositasini bajaradi.

Urf-odatlar aniq vaziyatlarda xatti-xarakatlarni aniq boshqarib, yosh avlodni katta avlod boshlab bergan oqimga buradi. Urf-odatlar va an'analar - katta avlod o'zining ijtimoiy xulq-atvori, ahloqiy maslaklari va hissiyotlari, ijtimoiy faoliyat uslublarini yoshlarga beradigan yonma-yon yuradigan yo'llardir.

Urf-odatlar va an'analar ular uchun umumiyl bo'lgan ikkita ijtimoiy funktsiyani bajaradi, yangi avlod turmushida ushbu munosabatlarni barqarorlashtiruvchi vosita sanaladi. Biroq bu funktsiyalarni ular quyidagi alohida yo'llar bilan bajaradi: urf-odatlar - muayyan vaziyatlardagi xatti-harakatlarni batafsil ko'rsatmalar yo'li bilan; ana'analar - insonning bevosita ma'naviy dunyosiga qaratilgan va ushbu munosabatlar tomonidan talab etiladigan ma'naviyat sifatlarini shakllantirish orkali o'z rolini bajaradi. Bundan tashqari, ularning har biri o'zining g'oyaviy mazmuniga ega formulasi bor.

Urf-odatlarni g'oyaviy mazmuni (formulasi) doimo xulq-atvor qoidasi - muayyan vaziyatda xatti-harakatlar ko'rsatmasi hisoblanadi. An'nalarning g'oyaviy mazmuni (formulasi) deganda har doim xulq-atvorning normasi va printsipi, eng avvalo, xulq-atvor xususiyatini tasdiklash uchun zarur bo'lgan ma'naviy sifatlar tushuniladi.

Masalan, milliy o'zbek an'analar - kattalarni hurmat qilishdir. Ushbu an'ananing normasi (yoki printsipi) - ularning holati, unvoni, mansabidan kat'i nazar, yoshi jihatidan katta bo'lган kishini har doim hurmat kilishdir. Urf-odat (batafsil ko'rsatma) kattalarni hurmat qilish - kattalarga salom berish, transportda yoki boshqa jamoat joylarida kattalarga joy berish, kattalar suhbatini bo'lmaslik,

ularni o'tkazib yuborish va boshqalar. Urf-odatlar va an'analar o'rtasida ikkita asosiy ajratuvchi chiziqlar o'tadi. Birinchi chiziq ularning oddiyligi va murakkabligi, tez-tez qaytarilishi bo'yicha ijtimoiy munosabatlarning (sotsial va ijtimoiy) ikki turini ajratadi. Ikkinchi chiziq ularning funktsiyaviy belgilari orqali o'tadi.

Oilaviy tarbiya yoki ona-onalar timsoli munosib farzand tarbiyalashning asosiy shartlaridai biri hisoblanadi. Mana shuning uchun maktabga borishidan avval farzandga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini qo'ldan boy bermaslik kerak. Oilaning asl nufuzi shunchaki nasihatlar bilan emas, balki turmush tarzi, ota-onalar, xulq-atvori namunalari bilan ortadi. Ma'naviylik o'rgatilmaydi, misol va yaxshi o'gitlar orqali kattalar va yaqin kishilardan qabul qilinadi.

Oilada haqiqiy tarbiya bilan shug'ullanish katga mehnatni talab qiladi. Bu bolani parvarish qilishga sarflanadigan jismoniy mehnatga ham, uni ma'naviy kamol toptirishga sarflanadigan aqliy mehnatga ham tegishlidir. Bunda ota-ona ham muhim rol o'ynaydi.

Farzandning zukko, ehtirosli va jismoniy yetuk inson bo'lib yetishida erxotiining o'zaro yordam berishi muhim hisoblanadi.

Va, nihoyat, farzandning iymonli, e'tiqodli qilib voyaga yetkazishda nikohning rolini ham unutmaslik kerak, chunki nikoh diniy yo'lida oilani mustahkamlaydi. Ota-onalar farzandning jismoniy, axlokiy va ma'naviy kamol toiiishida ko'pipcha, Qur'on va Hadisga suyanadilar.

Din tomonidan yoritib berilgan ahlokiy-etnik qadriyatlar va normalar e'tiqod qiluvchilarning turmush tarziga va ijtimoiy xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. «Islom O'zbekiston aholisi hayotida» mavzuida o'tkazilgan tadqiqot ma'lumotlari xam buni tasdiqlaydi. «Oilangizda farzandlar musulmonlarning qanday axloqiy-etik normalariga o'qitiladi?» degan savolga so'rab chiqilganlarning ko'pchiligi (63,5 foiz) ularning oilalarida farzandlar «ota-onalar va kattalarni hurmat qilish, ularning suhbatlarini buzmaslik va ularning topshiriqlarini so'zsiz bajarish» ruhida tarbiyalanash deb fikr bildirdi. Bu borada bir-birlariga nisbatan «Siz» deb murojaat qilish ham muhim hisoblanadi. So'rab chiqilganlarning 44,3 foizi shunga o'rgatadi. Respondentlar oilalarining 43,0 foizi farzandlariga har qanday ishni «Bismilloh» deb boshlash va «Omin» deb yakunlashga o'rgatadi. Respondentlar oilalarining 42,9 foizida farzandlarga etik normalarni, bosiqlik va odamlar bilan past ovozda va o'chakishmay so'zlashishni singdirib boradi, respondentlarning 36,7 foizi musulmoncha salom berishga («Assalomu alaykum») o'rgatadi.

Empirik ma'lumotlar tahlili diniy axlokiy-etik normalar oila hayot faoliyatida alohida o'rinni egallovchi qadriyat tizimi sifatida karalashi mumkinligini qayd etish imkonini beradi, chunki ular ko'prok oila a'zolari o'rtasida o'zaro munosabatlarning ma'no va mazmunini belgilab beribgina qolmay, balki kamrok darajada o'ziga mujassamlashtiradi.

Dunyoviy davlat bo'lган O'zbekistonda islom diniy axloqiy-etik normalari yaqin kishi va katta kishini hurmat qilishga chaqiruvchi insoniy yo'nalishni ham andishalik va o'zaro sabr-qanoatlilikni o'z ichiga oladi. SHu munosabat bilan o'zbekistonliklarning ko'pchiligi islom dini axloqiy normalariga ijobiy munosabatda bo'ladi va ularni o'z farzandlariga o'rgatadi.

Qur'on normal oilaviy munosabatlar er-xotinlar o'rtasidagi totuvlikni nazarda tutishini kayd etadi, ular birga yashash mobaynida bir-birlarini to'ldirib boradi. Er va xotin o'rtasidagi munosabat musulmonlarning muqaddas kitobida quyidagicha ifoda etilgan: «Ular sizlarning libosingiz, sizlar ular uchun libossiz (ya'ni er-xotin bir-biriga kishi libosga muhtoj bo'lgani kabi muhtojdirlar)»

Kiyim tanani qoplab va tashki muhitning nokulayliklaridan ximoya qilib, unga zich yopishib turadi. Er va xotinning yuragi va ruhiyati mustahkam bog'langan, ular o'z g'ururi va qadri-qimmatiga yoki sevimli er-xotinlik uylaridagi tinchlikka ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan tashqi holatlardan bir-birlarini himoya qilishadi.

Musulmonchilikda erkak kishi zimmasiga oilani boshqarish uchun katta mas'uliyatlar yuklatilgan va shuning uchun erga tegishli vakolatlar berilgan.

Erkak oilaning boshlig'i ekan, oilada erkak xotini va farzandlari oldida rahbar vazifasini bajaradi. SHundan kelib chiqib Kur'onda so'z boradi: «Erkaklar xotinlari ustida rahbardirlar. Bunga sabab Alloh ularning birovdarini birovdaridan (ya'ni erkaklarni ayollardan) ortiq qilgani va erkaklar (xotinlari va oilalari uchun) o'z mol-mulklaridan sarf-xarajat qilganlaridir» (Niso surasi 4:34).

Erning xotin oldidagi burchi qoidasi. Ibn Umarning guvohlik berishicha Muhammad Paygambarning hayoti haqidagi Hadis kitobda bat afsil ifodalangan: «Har biringiz sizning (oilada va jamiyatda) mavqeingiz bevosita majburiyatlarning himoyachisi va muhofaza hisoblanasiz va sizga tobelikda yoki naslingizda bo'lganlarning harakatlari uchun javob beradi. Erkak o'z uyida yashovchilar uchun targ'ib o'rnatuvchi hisoblanadi. O'z navbatida ayolning ham o'z eri va bolalariga nisbatan haqi bor. Boshqacha aytganda xar biringiz o'z urug'ingiz sarboni va o'z qavmingiz uchun mas'ul hisoblanasiz».

Hakiqiy musulmon erkak kishi Muhammal Payg'ambarning fikricha kuyidagi koidalarga rioya kilishi kerak: 1. Xotini bilan hamisha yaxshi muomalada bo'lisci. 2. Agar ular (xotini) juda bema'ni ish qilishmasa, ularga ozor bermaslik va mabodo noo'rin ish qilgan taqdirda ularni beozor urish mumkinligi. 3. Har qanday holatda ham ayolga qarshi hech qanday ish qilmaslik. 4. CHunki erkakning xotinida va o'z navbatida xotinni o'z erida ham haki borligi. 5. Erga yoqmaydigan kishilarni uyga kiritmaslikni talab kilish. 6. Xotinni eridan o'ziga nisbatan yaxshi boqishini va yaxshi kiyintirishini talab qilishga xaqli ekanligi.

Bu borada erlarni xotini bilan yaxshi yashashi hakida Qur'oni Karimda shunday deyiladi: «Ular bilan tinch-totuv yashanglar. Agar ularni yomon ko'rsangizlar ham (sabr kilib inoq holda yashayveringlar). Zero, sizlar yomon ko'rgan narsada Alloh ko'p yaxshiliklarni qilib qo'ygan bo'lisci mumkin» (Qur'on, Niso surasi 4:19).

Hakikiy musulmon kishi islom dini qadriyatlariga amal qilmasligi mumkin emas. Hatto uyga kirar ekan, u birinchi bo'lib xotini va bolalariga salom berishi va ularga yaxshilik tilashi kerak. «...Qachon uylarga kirsangizlar bir-birlaringizga Alloh huzuridan bo'lgan muborak pokiza salomni aytinqlar (ya'ni «Assalom alaykum», denglar)» (Nur surasi 24:61).

Erkak kishi tegishli ravishda o'z oilasiga g'amxo'rlik qiladi. Bunday g'amxo'rlik erkak kishi zimmasiga muayyan majburiyatlarni yuklaydi. Boshqacha

aytganda, erkak kishi o'z oilasi va farzandlari uchun to'liq javob beradi. Bu bir musulmon kishi his qiladigan javobgarlikdir Abu Hurayra guvohlik berishicha, Hadislardan biri oila uchun erkak kishining javobgarligi darajasini aniq belgilab beradi: «Tangri yo'lida siz sarflaydigan dinorlardan, ya'ni qul sotib olishga sarflaydigan, qashshoklarga sadaqa sifatida beradigan, zavjangiz va bolacharingiz uchun sarflaydigan dinorlardan (Tangri) sizni taqdirlashda eng qimmatlisi, oilangiz uchun sarflaganingizdir».

Oilada ayol kishining roli ham katta ahamiyatga ega, chunki har bir musulmon ayoli alohida fazilatlarga ega bo'lishi kerak:

... U eri yo'qligida nomusi va mol-mulkni saqlaydi: «ibodat-itoatli va erlari yo'qligida Allohning hifzu himoyati bilan (erlarining mol-mulklarini va o'z iffatlarini) saqlovchi xotinlar yaxshi xotinlardir» (Niso surasi 4:34).

U sababsiz taloq so'ramaydi. Hadislardan birida shunday deyiladi: «(Islomda) ruxsat berilganlardan Alloh eng xushlamaydigani taloqdir» va «sababsiz taloq so'ragan ayol hatto jannat bo'yini hidlamaydi».

Ayol eriga biror zarar yetkazishdan tiyiladi, doim uydan chiqishga, mehmon chaqirishga va boshqa muhim masalalar bo'yicha eridan ruxsat so'raydi.

Bolani chakaloklikda ko'tarish, o'stirish va unga g'amxo'rlik qilish ayolning vazifasiga kiradi. Payg'ambar deganki: «o'z erlariga yaxshi munosabatda bo'lган, bolalar tuqqan (agar tug'olsa) va doim o'z erining ehtiyojlarini bajarishga yordam bergen ahli ayollarining jannatga kiradi...». Bu nafakat buyuk, balki o'ta muhim vazifa hamdir.

SHoh Jahon Jamna daryosi bo'yiga o'z umr yo'ldoshi Arjumandbonu beginiga qurilgan Tojmahal maqbarasini buyuk insoniy muxabbat, sadoqatga qo'yilgan haykaldir. SHoh Jahon shu maqbaralarni tiklaganda jon bergen... Ko'zi yumilmay ochiq qolgan. Erkaklar, ayollar o'z umr yo'ldoshiga mehribon, oqibatli, sadoqatli bo'lган, sevgini o'z qalbida beg'ubor saqlashi shikast yetkazmay, ma'naviy kamoloti darajasining ko'rsatkichidir.

O'zbeklar hamma vaqt farzand ko'rishni, baxt, farzandsiz likni baxtsizlik deb qadrlaganlar. «Bolali uy bozor». Bolalar tashvishi bilan bog'liq bo'lган ishlarni ham ota-onalar ichki bir mas'uliyat sifatida quvonch bilan, quvonch aralash tashvish bilan bajaradilar. Bolalarining tashvishi qanchalik ko'p bo'lsa ham ota -onalar hech vaqt buni o'zlari uchun og'ir yuk deb bilmaydilar. Ba'zan ishdan charchab yoki biror narsadan ranjib qolganlarida bolalarning g'alvasi ortiqcha...

Ota-onal uchun ko'p farzandlari o'ynab yurgan uy hech vaqt tor bo'lmaydi. Bolalarsiz huvillab qolgan, bahaybat xonadon tor ko'rinadi. Bolalar oiladagi ma'naviy muhitnigina emas, balki er bilan xotin o'rtasidagi munosabatni ham mustahkamlaydi. Farzandli oilalarda er bilan xotinlarning bir~biriga bo'lган hurmati oshadi...

Bolalarning ko'pchiligi ulg'aygani sari ota - onaning bir - biriga kerakliligi yanada oshadi. Farzand bo'lmasa har qanday kuchli muxabbat xam darz keta boshlaydi, farzandsiz turmush bo'lmaydi. U har qanday oila uchun ham fojeadir.

Ota -ona hamda farzandlar o'rtasidagi ishonch, xurmatga asoslangan munosabatlar - oila mustaxkamlanganligining yana bir zaminidir.

O'zbek xalqi uchun oila eng muqaddas dargohdir. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda: "Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, birg'biriga nisbatan ezgulik bilan mehrg'oqibat ko'rsatmasa yaxshi a munosib tarzda yashash mumkin emas... O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining eson-omonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliv darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir".

SHuning uchun ham mamlakatimizda oila va uning muqaddasligini ta'minlash uchun bog'liq masalalar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yurtboshimizning tashabbuslari bilan 1998 yil "Oila yili", 1999 yil esa "Ayollar yili", uning uzviy davomi sifatida 2000 yil "Sog'lom avlod yili", 2008 yil "Yoshlar yili" deb e'lon qilindi.

Oliy Majlisning XI sessiyasida qabul qilingan "Oila Kodeksi" esa oilalarning mustahkamligini ta'minlashda, ularning huquqiy manfaatlarini muhofaza etishda huquqiy kafolat bo'lib hisoblanadi.

Huquqiy ihatdan kafolatlangan oila o'z burchlarini ham unutmasligi lozim. SHulardan eng asosiysi, oilani yaxshi oila qilib ko'rsatuvchi fazilatlardan biri - farzandlarni oila qurishga tayyorlashdir. Darhaqiqat, mamlakatimizda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash - oilalarning mustahkamligini ta'minlashning muhim shartidir. SHu boisdan ham "Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur"da xuddi mana shunday masalaga alohida e'tibor berilgan, ya'ni:

- oila oilaviy an'analarni hamda ma'naviy-ahloqiy merosni saqlab qoluvchi, davom ettiruvchi;
- jamiyatning eng kichik bir qismi bo'lib, bolaning madaniy, estetik va boshqa ehtiyojlari o'sishini va sog'lom turmush tarzini ta'minlovchi;
- bolaning fe'l-atvori asoslarini shakllantiruvchi birinchi murabbiy;
- hayotning barcha jabhalarida yosh avlodning doimo maslahatchisi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchisidir, deyiladi.

Demak, oila poydevorining mustahkamligi – jamiyat poydevori va binosini puxta qilib qurishni ta'minlashning asosiy shartidir, uning moddiy va ma'naviy barkamolligi esa davlat va jamiyat faroonligining negizidir.

Ma'naviyat o'z-o'zidan shakllanadigan narsa emas, u avvalo har bir insonning ichki ma'naviy salohiyatini shakllantirish yo'lida barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni o'zlashtirish, Vatan va millat manfaatlari yo'lida halol, fidoyilik bilan mehnat qilish jarayonida shakllanadi. SHu ma'noda ham Prezidentimiz «Ma'naviyat – taqdirning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol tapishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak»<sup>2</sup> ligini ta'kidlaydi.

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. (Nutqlar, maqolalar suhbatlar). T: O'zbekiston, 1993, 79-bet.

Oila mustahkamligi, ma'naviy va jismoniy barkamol farzand jamiyat mustahkamligi va ma'naviy yetukligining garoovidir. Sohibqiro Amir Temur ham o'g'il uylantirishda kelin tanlashni, farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko'targanligi bejiz emas. Davlatning qudrati – sog'lom fikrli, bilimli, ahloq-odobli, xalq, millat, Vatan taqdiri uchun jonini tikan inson qo'lida.

Ma'naviy ongning mohiyati odamlar o'rtasidagi ma'naviy muomalaning barcha masalalarini hal etadigan, yaxshilik va yomonlikni belgilab beradigan o'tmish va bugungi kun ma'naviyatining ilg'or elementlari qo'shilishidan iborat. Ma'naviy ong - «inson ongida odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, ularning jamoat ishiga, jamiyatga munosabatini tartibga soladigan ma'naviyat principlari va normalarining aks etishidir».

SHaxs ma'naviy ongi darajasi tavsifining umumiy mezoni bilan ma'naviy talablarni bilish darajasi va ularning kundalik hayotda namoyon bo'lishi bilan belgilanadi.

Ma'naviy ongning muhim tarkibiy qismi - ma'naviy his-tuyg'ular (masalan, vatanparvarlik, insonparvarlik, burch, mas'uliyat, or-nomus, vijdon) insonning inson bilan muomalada bo'lishi jarayonida shakllanadi va ahloqiy o'zaro munosabatlarni belgilab beradi. Insonning ma'naviy his-tuyg'ulari odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning hissiy jihatini ifodalaydi va intellekt bilan birgalikda o'ziniig yoki boshka kishilarning hatti-harakatiga axloqiylik nuqtai nazaridan baho berish imkonini beradi.

Ma'naviy ong har xil omillar (masalan, inson hayoti sharoitlari, uning hayotiy tajribasi, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat) ta'siri ostida shakllanishi mumkin. Ushbu holatda davlat tomonidan yaratiladigan shart-sharoitlar shaxsining etnik ma'lumoti va tarbiyasida katga rol o'ynaydi.

### **2.3. Mustaqillik yillarida ma'naviy yetuk barkamol insonni tarbiyalashda milliy g'oya va milliy mafkuraning roli**

Ma'naviy boy va ahloqiy yuksak shaxsni kamol toptirish oila va mamlakatdagi demokratik qayta o'zgartirishlarning umumiy jarayoni, xalq ongida milliy mustaqillik, yangi ilg'or qadriyatlar qaror topishi bilan uzviy bog'liqdir.

«Oila – deb qayd etadi, I.A.Karimov, - jamiyatning asosi, milliy mustaqillik g'oyalari qaror topishining tayanchi hisoblanadi. Yurtimizdagi har bir inson uchun Vatan tushunchasi, avvalo, oiladan boshlanadi. SHu bois oila va mafkura tushunchalari chambarchas bog'liqdir»<sup>1</sup>.

Oiladagi an'anaviy etika va qarindoshlik rishtalari o'zbek xalqi ma'naviy qadriyatlarining manbai hisoblanadi. «Oila... hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishishimiz darkor»<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonch. – T.: «O'zbekiston», T.8. 2000, 502-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Oila farovonligi – millat farovonligi. – T.: «O'zbekiston». T.6. 1998, 400-bet.

Mustaqillikni mustahkamlashda milliy g'oyadan ko'zlangan maqsadlarning keng qamrovli ilmiy-nazariy va amaliy yo'nalishlari Prezident Islom Karimovning asarlarida, nutq va ma'ruzalarida o'zining aniq konseptual ifodasini topgan.

Mustaqillik yillarida jamiyatimiz a'zolarining dunyoqarashi, fikrlash tarzida teran o'zgarishlar yuz bermoqda. Ana shunday sharoitda xalqimizni birlashtiradigan, bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etadigan, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini o'zida mujassam etadigan milliy g'oya va mafkurani yaratish ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotimizning muhim sharti hamda zaruratiga aylandi.

Mustaqillikni mustahkamlashda milliy g'oyaning zarurligi va uning ahamiyati ham ichki, ham tashqi siyosatimiz istiqbollari, samaradorligi bilan bog'liq. SHu nuqtai nazardan milliy g'oyaning zarurligi jamiyatimizni taraqqiy topgan demokratik mamlakatlardagi kabi erkin va farovon hayot barpo etish bilan ham bog'liq.

Demak, milliy g'oyaning negizini ham biz uchun eng asosiy, eng muhim ustuvor maqsad, tengsiz oliv ne'mat - mustaqillikni bundan buyon ham asrabavaylash, himoya qilish va mustag'kamlash bo'lib qolaverar ekan, uning zarurligi hech bir davrda o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Hayotiy kuzatishlar, ba'zan ziylilarimiz o'rtasida ham bizga milliy g'oya, milliy mafkura nima uchun, kim uchun kerak, uning ma'no-mohiyati nimadan iborat, degan muhim masalaga yana bir bor oydinlik kiritish zarurati mavjud. Bunda, ya'ni milliy g'oyada O'zbekiston xalqining mamlakatimiz rivojida belgilab olgan asosiy maqsad va muddaolarining ifodasi mujassamlashgan.

Birinchidan, o'zining kelajagini ko'rmoqchi va qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat yoxud jamiyat, albatta o'z milliy g'oyasiga suyanishi va tayanishi zarurligi bilan bog'liq.

Prezident Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, «davlat tizimi, uni boshqarish va olib borilayotgan siyosat avvalo aniq va ravshan ifodalangan mafkura asosiga qurilmog'i lozim. Ya'ni, oldin davlat qurilishi va undan keyin mafkura paydo bo'lishi o'zi g'ayritabiyy hol. Buni yaxshi anglab olishimiz lozim. Ya'ni, oldin g'oya paydo bo'ladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo'ladi»<sup>1</sup>. Demak, o'z milliy g'oyasiga tayanmagan jamiyat inqirozga duchor bo'lishi, o'z yo'lini yo'qotib qo'yishi muqarrar.

Ikkinchidan, milliy g'oya O'zbekiston xalqining asosiy maqsad va muddaolarining ifodasi sifatida shuning uchun ham zarurki, odamlar ongini, tafakkurini o'zgartirmasdan turib, ko'zlangan oliv maqsad – ozod va obod jamiyatni, erkin va farovon g'ayotni barpo etib bo'lmaydi. Buning uchun esa, odamlar muayyan g'oyaga ishonishi va tayanishi zarur. Bu jarayon o'z-o'zidan harakatga kelmaydi, albatta. Negaki, keng xalq ommasini biron bir g'oyaning ilg'or va insonparvar ekaniga ishontirmaq uchun, avvalo, mazkur g'oyaning to'g'ri, g'ayotiy va ilg'or ekanligiga ishontirish zarur. Ishontirmaq uchun uning ilmiy va hayotiyligiga alohida e'tibor qaratish bilan birga milliy g'oyaning o'zi

<sup>1</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. –T.: «O'zbekiston», 2000. 464-465-b.

mamlakatimiz xalqining asosiy maqsad va muddaolari hamda manfaatlarini ifodalashi kerak.

Uchinchidan, milliy g'oyaning zarurligi millatning o'zligini to'la anglash jarayoni bilan bog'liq. Negaki, millat o'zligini to'la anglamas ekan, biron-bir buyuk o'zgarishlar qilib bo'lmaydi. Milliy o'z-o'zini anglash u yoki bu millatni o'zga millatlardan ajralib ketishiga emas, balki o'zligini anglagan millatlarning ma'rifatlashgan hamkorliklarining mustahkamlanib borishiga xizmat qiladi. Ana shunday o'ta murakkab vaziyatda milliy o'zlikni anglashda milliy g'oyaga asosiy tayanch kuch, ilmiy-nazariy va amaliy dastur sifatida har bir insonning ruhi, kayfiyati, hissiy kechinmalariga kirib borish orqali uning qalbi hamda ongiga ta'sir ko'rsatadi. Bu milliy g'oyaning xalq hayotiga yaqin, unga bevosita daxldor ekanligini ta'kidlash lozimdir.

Demak, O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy g'oyada bugungi hayotning eng dolzarb muammolari oila bilan hamkorlikda ish olib borish muhimdir. CHunki oila ostonadan, mahalladan boshlanadi.

To'rtinchidan, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda milliy g'oyaning zarurligi yana bir muhim holat bilan ya'ni bugun bizning tarixiy o'zgarishlar davrida totalitar tuzumdan erkin demokratik bozor munosabatlariga asoslangan demokratik tuzumga o'tish sharoitida yashayotganligimizdan kelib chiqmoqda. Bu davrning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov shunday xulosaga keladi: «Bu o'tish davri o'ziga xos, juda katta g'ov va to'siqlarga duch kelishi, qattiq kurashlar orqali kechishi barchamiz uchun ayon bo'lmos' i darkor. Xalqimiz va jamiyatimizni mana shu davrda yangi ufqlar sari boshlash, da'vat qilishda maqsadlarimiz aniq bo'lishi kerak. Bunday maqsadlarga esa avvalo chuqur o'yangan va puxta ishlangan mafkura asosida yetishish mumkin»<sup>1</sup>. Demak, milliy g'oya mustaqillikni mustahkamlash g'oyasining o'zagi bo'lgan - tanlagen taraqqiyot yo'limizning to'g'riadolatli va haqqoniy ekanligiga, u mana shu zaminda istiqomat qiladigan har bir insonning hayotiy manfaatlariga mos tushishiga keng ommani ishontirish orqali ularni bunyodkorlik ishlariga safarbar etish uchun xizmat qiladi.

Mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilishda milliy g'oyaning o'rmini hech boshqa biron bir omil bosolmaydi. SHu nuqtai nazardan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, maqsad va vazifalarini ma'naviy jig'atdan ta'minlash, bugungi kunda mamlakatimiz taqdiri uchun o'ta dolzarb masaladir. Buning yorqin ifodasi Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining o'n to'rtinchi sessiyasi (2004 yil 29 aprel) dagi «Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq» haqidagi nutqida hamda Oliy Majlisning mamlakatimiz fuqarolariga murojaatnomasida bayon etdi. Xususan unda shunday deyilgan: «Bugun bashariyat o'ziga xos va ziddiyatli bir davrda yashamoqda. Bir tomonidan ilm-fan va texnika, yuksak texnologiyalar taraqqiy etib, insonparvarlik g'oyalari, demokratik qadriyatlar, o'zaro hamkorlik dunyo bo'ylab qaror topib bormoqda. Ayni vaqtida

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. –T.: «O'zbekiston», 2000. 465-b.

yer yuzining turli mintaqalarida qurolli mojarolar ro'y berayotgan, xalqaro terrorizmning yangi-yangi xurujlari oqibatida ming-minglab odamlarning hayotdan ko'z yumayotgani g'am shu zamonning ochiq haqiqatidir»<sup>1</sup>.

Mustaqil O'zbekiston shart-sharoitida oila qadriyatlarining tiklanishi va qarindoshlik munosabatlari o'z umrini tugatgan oila-urug' munosabatlarini abadiylashtirishni emas, balki har bir oilaning iqtisodiy, madaniy. Kasb-kor jihatdan ravnaq topishini anglatadi. Oila va oila muammolari hamma vaqt davlatning diqqat-e'tibori va himoyasi ostidadir.

---

<sup>1</sup>«Xalq so'zi» 2004 yil 30 aprelb.

## XULOSA

Avvalgi darslarimizdan bilib olganingizdek, biz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etmoqchimiz. Bunday jamiyatda davlatni boshqarish, mamlakat miqyosida qarorlar qabul qilish, tadbirlar o'tkazish ishlari oddiy odamlarning tashabbusi va intilishlari orqali amalga oshiriladi. Bunday jamiyat fuqarolari ongliligi, erkin va mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi, tadbirkoriik fazilatlari bilan ajralib turadi. Bir so'z bilan aytganda, bunday jamiyat fuqarolari har tomonlama yetuk bo'lmos'i zarur. SHu nuqtayi nazardan qaraganda, mamlakatimizda barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida ahamiyat berilayotgani bizning erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidagi intilishlarimizga ham har tomonlama mos va uyg'undir. CHunki barkamol insonlar yashaydigan jamiyatdagina tinchlik-totuvlik, hamjihatlik, adolat va ma'rifat tamoyillari ustuvor bo'ladi.

Komillikka birdaniga erishib bo'lmaydi. Barkamol inson bo'iish uchun odam o'z oldiga ezgu maqsad qo'yib, bir umr shu yo'lda intilib yashashi lozim. U qilgan ishlari, oldida turgan burchi va vazifasini har kuni tahlil etib, ulardan zarur xulosalar chiqarib, kamchiliklarini tuzatishg'a, yaxshi xususiyatlarini oshirishga harakat qilishi kerak. Bu jarayon bir kun ham to'xtamasligi zarur. Ya'ni, inson o'z oldiga qo'ygan maqsad yo'lidan chekinmasligi lozim. CHunki maqsad insonni bosqichma-bosqich yuksaltirib boradi.

Komillikka erishish jarayoni buyuk mutafakkirlar asarlarida hayotiy misollar, afsona va rivoyatlar asosida ko'rsatib berilgan. Masalan, Alisher Navoiyning «Lisonut-tayr» – «Qush tili» asarida buning yorqin namunasini ko'rish mumkin. Bu asarda bir gala qushlar afsonaviy Semurg'ni izlab yo'lga chiqadi. Ular daryo va cho'llardan, vodiylar, tog'lardan uchib o'tadi. Ko'pchiligi yo'l azobiga chiday olmay yarim yo'lda qolib ketadi. Faqat o'ttizta qush o'z maqsadidan qaytmay, manzil sari dadil intilaveradi. SHunda ular o'zlari Semurg', ya'ni o'ttizta qush ekanini sezib qolishadi. CHunki fors tilida «si» – o'ttiz, “murg” – qush degani. Bundan xulosa shuki, intilgan odam baribir maqsadiga yetadi.

Ma'lumki, bolalik paytida kimdir uchuvchi bo'lgisi, kimdir olim bo'lib, kashfiyotlar qilgisi, yana kimdir san'atkoriликка intilib, yaxshi qo'shiqlar aytgisi keladi. Lekin orzu orzuligicha qolib ketmasligi lozim. Orzu maqsadga aylanishi darkor. CHunki orzu inson xohish va istaklarini ifoda etadigan tasavvur, xayoliy narsa. Maqsad esa bajarilishi, amalga oshirilishi talab etiladigan niyatdir. Maqsad yo'lida tinimsiz o'qib-o'rganish, mehnat qilish, oldinga intilish darkor.

Odam muayyan kasbga intilar ekan, shu tariqa ko'nglidagi orzuni maqsadga aylantiradi. Bunday intilish orqali u faqat maqsadga yaqinlashibgina qolmay, shu yo'lidi safarbarlik tufayli o'zini ham el-yurtga foydasi tegadigan inson tarzida tarbiyalab boradi. Bu jarayon to'xtamasa, uzluksiz davom etsa, inson bir kun kelib o'z sohasining eng mohir ustasiga, ta'bir joiz bo'lsa, piriga aylanadi. Uning kasb

mahorati va iste'dodiga hamma tan beradi, mehnatidan ko'pchilikka foyda yetadi. SHuning o'zi, ya'ni biror-bir kasb-hunar yoki ilm sohasining ustasi bo'lish ham komillikning bir belgisidir. Ilmi va mehnati, noyob iste'dodi bilan el-yurtga xizmat qilgan insonlarni ulug'lab, ular bilan faxr-iftixor qilishimizning boisi ham shundan.

Har bir inson qalbida komillik tuyg'usi bo'ladi. Oddiy go'dak ham o'yinchoqlar orasidan eng chiroyli va mukammalini olib o'ynagisi keladi. Odamzot ana shu tuyg'uni bir umr tarbiyalab, yuksaltirib borishi lozim. Bunda, albatta, u yashaydigan muhit, yon-atrofidagi odamlar alohida ahamiyat kasb etadi. Komillik tuyg'usi go'zallik, ezgulik, adolat, insof, diyonat, haqiqat tuyg'ulari bilan yonma-yon yuradi, ular bilan birga, bir butun holda rivojlanadi.

Komil inson g'oyasi islom falsafasidan oziqlanib, xalqimiz tafakkurida yanada kengroq ma'no-mazmun kasb etgan. Bu g'oya Abu Nasr Forobi, Alisher Navoiy kabi donishmand bobolarimiz asarlarida teran ifoda etilgan.

Xulosa qilib aytganda, komillik odamzotning azaliy orzusi bo'lib, uni amalga oshirish uchun muayyan ijtimoiy shart-sharoit zarur. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng biz shunday imkoniyatga ega bo'ldik. Xalqimizning buyuk davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish orzusi ota-bobolarimizdan meros bo'lgan muborak zaminimizni gullab-yashnatadigan barkamol insonlarni voyaga yetkazishni zaruratga aylantirmoqda.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. // Nutqlar, maqolalar, suhbatlar. — T.: O'zbekiston, 1993.
2. Karimov I.A. Ijobiy ishlarmizni oxiriga yetkazaylik. // Bizdan ozod va obod Vatan qolsin 2-jild. -T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Oila farovonligi - millat farovonligi. - T.: O'zbekiston, 1998.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1998.
5. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. «Turkiston-press» axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar. - T.: O'zbekiston, 1999.
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. // Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz sari. 8-jild. -T.: O'zbekiston, 2000.
7. Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasining 8 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq. // Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. 9-jild. — T.: O'zbekiston, 2001.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, O'zbekiston, 2008.
9. Sog'lom avlodni tarbiyalamoq - har birimizning muqaddas burchimizdir // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.
10. Axmedshaeva M., Eshmurodov B. Yoshlar manfaati e'tiborda. /Toshkent oqshomi, 9 sentyabrь 2008. № 177.
11. Bo'rieva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. -Toshkent, 1997.
12. Yoshlar haqida g'amxo'rlik. /Toshkent oqshomi. 10 iyunъ 2008. № 110.
13. Islom O'zbekiston aholisi hayotida. — T.: «Ijtimoiy fikr» Markazi, F.Ebert Jamg'armasi, 2003.
14. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. – Toshkent, O'qituvchi, 2000.
15. Oila ma'naviyati. Toshkent, 2007.
16. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. – Toshkent, Ma'naviyat, 1998.
17. Ubaydullaeva R.A. Mustakil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat. T.: Fan, 2006.
18. Qur'onov M. Milliy tarbiya. – Toshkent, Ma'naviyat, 2007.
19. Qur'onov M. Otalar kitobi. – Toshkent, O'zbekiston, 2007.
20. Qur'oni Karim/ Tarjima va izohlar muallifi Alauddin Mansur/ - T.: CHo'lpon, 1992.
21. G'ulom Mirzo. Yosh avlod huquq va manfaatlarining muhim kafolati. /Toshkent oqshomi. 4 iyunъ 2008. № 106.